

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

## QUROL TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 18-mayda qabul qilingan

Senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma‘qullangan

### 1-bob. Umumiy qoidalar

#### 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonun qurol va uning o‘q-dorilari muomalasi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi hamda fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini, mulkni himoya qilishga hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan.

*Oldingi tahririga qarang.*

#### 2-modda. Qurol to‘g‘risidagi qonunchilik

Qurol to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining qurol to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: 2008-yil 14-noyabrdagi “Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo davlatlarning o‘qotar qurollar, o‘q dorilar, portlovchi moddalarning qonunga xilof ravishda tayyorlanishi va aylanishiga qarshi kurashda hamkorligi to‘g‘risida”gi bitim.*

*(2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

#### 3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**gazi qurol** — ko‘zdan yosh oqizadigan yoki achishtiradigan moddalarni qo‘llash yo‘li bilan jonli nishonga vaqtinchalik shikast yetkazish uchun mo‘ljallangan qurol;

**kalta stvulli qurol** — stvolining uzunligi uch yuz millimetrdan va umumiy uzunligi olti yuz millimetrdan oshmaydigan qurol;

**pnevmatik qurol** — siqilgan, suyultirilgan yoki qotirilgan gazzimon moddaning quvvati hisobiga yo‘naltirilgan holda harakatga keladigan aslaha bilan nishonni masofadan turib urish uchun mo‘ljallangan qurol;

**signal beruvchi qurol** — tuzilishi jihatidan faqat yorug‘lik, tutunli yoki tovushli signallar berish uchun mo‘ljallangan qurol;

**sovuq qurol** — shikast yetkaziladigan obyekt bilan bevosita to‘qnashish chog‘ida odamning jismoniy kuchi yordamida nishonni urish uchun mo‘ljallangan qurol;

*Oldingi tahririga qarang.*

**sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ashyolar** — kasbiy, ishlab chiqarish yoki sport faoliyatida yoxud xo‘jalik-maishiy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan, sanoat usulida yoki qo‘lbola tarzda yasalgan tig‘li, kesuvchi ashyolar (pichoqlar, bigizlar va boshqa uchi o‘tkirlangan sanchiladigan, kesuvchi ashyolar), jismoniy kuch ishlatganda shikast yetkazishi mumkin bo‘lgan ashyolar (beysbol bitalari, softbol o‘yini uchun bitalar);

*(3-modda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-645-sonli Qonuniga asosan yettinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.11.2020-y., 03/20/645/1469-son)*

**uloqtirish quroli** — nishonni aslaha bilan masofadan turib urish uchun mo‘ljallangan, odamning jismoniy kuchi yoki mexanik qurilma yordamida yo‘naltirilgan holda harakatga keladigan qurol;

**o‘q-dorilar** — qurolning jonli nishonni yoki boshqa nishonni urish uchun mo‘ljallangan hamda tarkibida portlovchi, poroxli, uloqtiruvchi, pirotexnik yoki urib chiqaradigan moddalar yoxud ularning birikmasi mavjud bo‘lgan qurol-yarog‘ ashyolari va uloqtiriladigan aslahasi;

**o‘qotar qurol** — porox yoki boshqa modda quvvati hisobiga yo‘naltirilgan holda harakatga keluvchi aslaha bilan nishonni masofadan turib mexanik urish uchun mo‘ljallangan qurol;

**o‘qotar qurolning asosiy qismlari** — stvol, zatvor, o‘qdon (baraban), ramka, stvol qutisi;

**qurol** — tuzilishiga ko‘ra jonli nishonni yoki boshqa nishonni urish, signallar berish uchun mo‘ljallangan qurilmalar va ashyolar. Tuzilishi jihatidan qurolga o‘xshash bo‘lgan xo‘jalik-maishiy va ishlab chiqarish maqsadidagi buyumlar sifatida sertifikatlangan buyumlar, shuningdek tuzilishi jihatidan qurolga o‘xshash bo‘lgan sport aslahalari qurol jumlasiga kirmaydi;

**qurol muomalasi** — qurolni va uning o‘q-dorilarini, o‘qotar qurolning asosiy qismlarini ishlab chiqarish, ta‘mirlash, realizatsiya qilish, olish, hisobga olish, saqlash, olib yurish, tashish, kolleksiyalash, ko‘rgazmaga qo‘yish, ulardan foydalanish, ularni olib qo‘yish, yo‘q qilish, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish, shuningdek ularni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish;

**qurol egasi** — ushbu Qonun talablariga muvofiq olingan qurol kimning egaligida turgan bo‘lsa, o‘sha jismoniy yoki yuridik shaxs.

#### **4-modda. Qurol va uning o‘q-dorilari muomalasining asosiy prinsiplari**

Qurol va uning o‘q-dorilari muomalasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:  
qonuniylik;

fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish hamda saqlash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish ustuvorligi;

O‘zbekiston Respublikasining qurol va uning o‘q-dorilari muomalasi sohasidagi xalqaro majburiyatlarining vijdonan bajarilishi;

qurol va uning o‘q-dorilari muomalasi masalalariga doir axborotning oshkoraligi hamda undan foydalana olish.

### **2-bob. Qurolning tasnifi**

#### **5-modda. Qurolning turlari**

Qurol mo‘ljallanilgan maqsadi hamda asosiy parametrlari va tavsiflariga ko‘ra fuqaroviy qurol, xizmat qurol va jangovar qurol turlariga bo‘linadi.

#### **6-modda. Fuqaroviy qurol**

Ov va sport bilan shug‘ullanish uchun, shuningdek o‘zini o‘zi himoya qilish maqsadida foydalanish uchun mo‘ljallangan qurol fuqaroviy qurol jumlasiga kiradi.

Fuqaroviy qurol quyidagilarga bo‘linadi:

1) ov qurol:

soyli stvolli o‘qotar qurol;

silliq stvolli o‘qotar qurol, shu jumladan soyli qismining uzunligi bir yuz qirq millimetrdan oshmaydigan o‘qotar qurol;

kombinatsiyalangan (soyli stvolli va silliq stvolli) o‘qotar qurol, shu jumladan almashtiriladigan va joylashtiriladigan soyli stvolli o‘qotar qurol;

*Oldingi tahrirga qarang.*

pnevmatik qurol;

*(6-modda ikkinchi qismi 1-bandining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

tig‘li sovuq qurol (ov pichoqlari, ov xanjarchalari va xanjarlar);

signal beruvchi qurol;

2) sport qurol:

soyli stvolli o‘qotar qurol;

silliq stvolli o‘qotar qurol;

tig'li sovuq qurol (rapiralar, shpagalar va qilichlar);  
uloqtirish quroli (kamonlar, arbaletlar va nayzalar);

*Oldingi tahrirga qarang.*

pnevmatik qurol;

*(6-modda ikkinchi qismi 2-bandining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

signal beruvchi qurol;

3) o'zini o'zi himoya qilish quroli:

gazli qurol — ko'zdan yosh oqizadigan yoki achishtiradigan moddalar bilan to'ldirilgan gazli ballonchalar, mexanik purkagichlar, aerozolli qurilmalar va boshqa qurilmalar;  
elektroshok qurilmalari, uchqun chiqargichlar va shikast yetkazuvchi ta'siri elektr energiyasidan foydalanishga asoslangan boshqa qurilmalar.

Fuqaroviy o'qotar qurol qatorasiga o'q uzishni istisno etishi va o'qdon (baraban) sig'imi o'n dona patronidan ortiq bo'lmasligi kerak.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-iyuldagi 455-son "Fuqaroviy qurol va xizmat quroli sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.*

## **7-modda. Xizmat quroli**

Fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini, mol-mulkni himoya qilishga, tabiatni va tabiiy resurslarni, qimmatbaho va xavfli yuklarni, maxsus xat-xabarlarni muhofaza qilishga doir vazifalarni bajarish chog'ida yuridik shaxslarning (bundan buyon matnda maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslar deb yuritiladi) xodimlari tomonidan, shuningdek davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida foydalanish uchun mo'ljallangan qurol xizmat quroli jumlasiga kiradi.

Xizmat quroli qatorasiga o'q uzishni istisno etishi, o'qdon (baraban) sig'imi o'n dona patronidan ortiq bo'lmasligi, kalibri silliq stvolli qurol uchun yigirma besh millimetrdan va og'iz qismidagi quvvat uch yuz ellik joulgacha bo'lgan soyli kalta stvolli qurol uchun to'qqiz millimetrdan oshmasligi kerak.

Maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslarning va xizmat qurolini saqlash, olib yurish, undan foydalanish huquqiga ega bo'lgan davlat organlari mansabdor shaxslarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-iyuldagi 455-son "Fuqaroviy qurol va xizmat quroli sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.*

## **8-modda. Jangovar qurol**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markazi, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining harbiy tuzilmalari (bundan buyon matnda maxsus organlar va harbiy tuzilmalar deb yuritiladi) qurollantirilgan yoki qurollantirishga mo'ljallangan, jangovar harakatlarni olib borish hamda xizmat vazifalarini bajarish uchun mo'ljallangan qurol jangovar qurol jumlasiga kiradi.

*(8-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Jangovar qurolni va uning o'q-dorilarini olish, saqlash va ulardan foydalanish faqat maxsus organlar va harbiy tuzilmalar tomonidan, shuningdek ushbu Qonun 12-moddasining **yettinchi**

qismida nazarda tutilgan, maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Jangovar qurolning va uning o'q-dorilarining muomalasi tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

### **3-bob. Qurol va uning o'q-dorilari muomalasi**

#### **9-modda. Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari muomalasiga belgilanadigan cheklovlar**

O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagilar taqiqlanadi:

1) fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari sifatida quyidagilarning muomalasi: o'qdon (baraban) sig'imi o'n dona patronidan ortiq, stvol uzunligi stvol qutisi bilan besh yuz millimetrdan va qurolning umumiy uzunligi sakkiz yuz millimetrdan kam bo'lgan uzun stvolli o'qotar qurol, shuningdek tuzilishi o'q otish imkoniyatini yo'qotmagan holda uni sakkiz yuz millimetrdan kam uzunlikkacha buklash, siljitish yoki qismlarga ajratish imkonini beradigan qurolning;

boshqa ashyolarning shaklini takrorlovchi o'qotar qurolning;

soyli stvolli o'qotar qurolning patronlariga moslab tayyorlangan silliq stvolli o'qotar qurolning;

stvolsiz o'qotar qurolning (patron gilzasi stvol sifatida foydalaniladigan qurolning);

3D-printerida polimer va kompozit materiallardan chiqarilgan o'qotar qurolning;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan normalarga muvofiq bo'lmagan chiqish parametrlariga ega bo'lgan elektroshok qurilmalarining, uchqun chiqargichlarning va boshqa qurilmalarning;

qo'llanilishiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ruxsat etilmagan, asabni falajlaydigan, zaharli va boshqa kuchli ta'sir ko'rsatuvchi moddalar bilan to'ldirilgan gazli qurolning;

shikastlovchi ta'siri radioaktiv nurlanish, kimyoviy va biologik (bakteriologik) omillardan foydalanishga asoslangan qurolning;

shikastlovchi ta'siri elektromagnit, nur, issiqlik, infratovush yoki ultratovush nurlanishdan foydalanishga asoslangan qurol va boshqa anjomlarning;

tig'ining yoki keskichining (damining) uzunligi to'qson millimetrdan ortiq bo'lgan, tugmasi yoki pishangi bosilganda sopidan avtomatik ravishda chiqariladigan va mahkamlanadigan yoxud og'irlik kuchi yoki tezkor harakat hisobiga surilib chiqadigan hamda avtomatik ravishda o'rnatilgan tig'li sovuq qurol va pichoqlarning;

uloqtiriladigan anjomi zirhteshar, yondiruvchi, havoda iz qoldiruvchi yoki portlovchi ta'sirga ega o'q-dorilarning, shuningdek gazli to'pponchalar va revolverlar uchun sochma o'q-dorili patronlarning;

qurol sifatida qo'llash uchun maxsus moslashtirilgan zarb berib-parchalovchi va uloqtiruvchi ta'sirga ega ashyolarning (gurzilar, kastetlar, surikenlar, bumeranglar va boshqa ashyolarning), bundan sport aslahalaridan foydalanish mustasno;

2) fuqaroviy qurol hamda uning o'q-dorilari sifatida quyidagilarning muomalasi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

pnevmatik kalta stvolli qurol, shuningdek tashqi tomondan avtomatik qurol nusxalariga (replikalariga) o'xshash pnevmatik qurolning (bundan ushbu qurolni sport obyektlarida saqlash va undan foydalanish mustasno);

*(9-modda 2-bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

cheklangan shikast yetkazuvchi o'qotar qurolning (poroxli yoki boshqa modda quvvati hisobiga yo'naltirilgan holda harakat oluvchi va odamni o'ldirish uchun mo'ljallanmagan, jarohat yetkazuvchi ta'sir kuchiga ega bo'lgan patronning otiladigan anjomi bilan masofadan turib jonli nishonga mexanik shikast yetkazish uchun mo'ljallangan kalta stvolli o'qotar qurolning va stvolsiz o'qotar qurolning);

gazli kalta stvolli qurolning;

*Oldingi tahrirga qarang.*

maxsus ta'mirlash ishlarini amalga oshirmasdan turib o'q uzish imkoniyatini istisno etadigan o'quv qurolining va vazn-o'lehamli qurolning;

nur-tovushli ta'sirga ega patron bilan o'q uzishni imitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, maxsus ta'mirlash ishlarini amalga oshirmasdan turib boshqa turdagi patronlar bilan o'q uzish imkoniyatini istisno etadigan paxtavon qurolning va uning o'q-dorilarining;

*(9-moddaning 2-bandi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuniga asosan beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

harakatga keltiruvchi vositalarni, ulotqiruvchi moddani va shikast yetkazuvchi ta'sir kuchiga ega bo'lgan otildigan anjomni gilza yordamida yaxlit holda birlashtiradigan silliq stvolli o'qotar quroldan yoki cheklangan shikast yetkazuvchi o'qotar quroldan o'q uzish uchun mo'ljallangan va odamni o'ldirish uchun mo'ljallanmagan, jarohat yetkazuvchi ta'sir kuchiga ega bo'lgan patronlarning;

ko'zdan yosh oqizadigan yoki achishtiradigan moddalar bilan to'ldirilgan harakatga keltiruvchi vositalarni gilza yordamida yaxlit holda birlashtiradigan, gazli quroldan yoki cheklangan shikast yetkazuvchi o'qotar quroldan o'q uzish uchun mo'ljallangan va odamni o'ldirish uchun mo'ljallanmagan, gazli ta'sir kuchiga ega bo'lgan patronlarning;

harakatga keltiruvchi vositalarni, nur-tovushli ta'sirga ega anjomlarni gilza yordamida yaxlit holda birlashtiradigan, o'qotar quroldan, gazli yoki signal beruvchi quroldan o'q uzish uchun mo'ljallangan va jonli nishonga yoki boshqa nishonga shikast yetkazish uchun mo'ljallanmagan nur-tovushli ta'sirga ega bo'lgan patronlarning;

po'lat o'zakli aslahasi bo'lgan, jonli nishonga yoki boshqa nishonga shikast yetkazish uchun mo'ljallangan o'qotar quroldan o'q uzish uchun mo'ljallangan patronlarning;

3) soyli stvolli sport o'qotar qurolini yoki og'iz qismidagi quvvat 3 joul dan yuqori va kalibri 4,5 millimetrdan ortiq bo'lgan pnevmatik sport qurolini, shuningdek tig'li sovuq sport qurolini hamda ulotqirish qurolini sport obyektlaridan tashqarida saqlash va ulardan foydalanish, bundan hayvonot dunyosi obyektlarini harakatsizlantirish va emlash bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot hamda profilaktika ishlarini amalga oshirish uchun kamonlar va arbaletlardan foydalanish mustasno;

4) fuqaroviy va xizmat quroliga tovushsiz o'q uzish moslamalarini va tunda ko'rish mo'ljallagichlarini o'rnatish, bundan ov qilish uchun mo'ljallagichlar mustasno;

5) qurolni va uning o'q-dorilarini jo'natish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

6) fuqaroviy qurolni (bundan o'zini o'zi himoya qilish quroli mustasno), sovuq qurolni hamda sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni o'zini o'zi himoya qilish maqsadida olib yurish;

*(9-moddaning 6-kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-noyabrdagi O'RQ-645-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2020-y., 03/20/645/1469-son)*

7) mitinglar, ko'cha yurishlari, namoyishlar va boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazilganda, ko'ngilochar va hordiq chiqarish uchun mo'ljallangan, alkogolli mahsulotlar realizatsiya qilinadigan joylarda, ta'lim, tibbiyot muassasalarida hamda qurol olib yurish taqiqlangan boshqa jamoat joylarida bo'lgan vaqtda, shuningdek alkogolli ichimlikdan, giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast holda fuqaroviy qurolni olib yurish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

8) qurolni va sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni jamoat joylarida, shu jumladan shahar transportida, shahar atrofiga qatnovchi, shaharlararo va xalqaro transportda ochiq (g'ilofsiz) holda olib yurish;

*(9-moddaning 8-kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-noyabrdagi O'RQ-645-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2020-y., 03/20/645/1469-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

9) sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni ulardan kasbiy faoliyatda, sport faoliyatida yoki xo'jalik-maishiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lmagan hollarda, jamoat joylarida olib yurish;

*(9-moddaning 9-kichik bandi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-noyabrdagi O'RQ-645-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.11.2020-y., 03/20/645/1469-son)*

10) fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini realizatsiya qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik shaxslarning ixtisoslashtirilgan do'konlaridan tashqarida fuqaroviy hamda xizmat qurolini va uning o'q-dorilarini realizatsiya qilish;

11) fuqaroviy qurolga qonuniy asosda egalik qilmaydigan shaxslarga bunday qurolning patronlarini realizatsiya qilish, bundan sport tashkilotlarida o'qotar quroldan foydalanish bilan bog'liq sport turlari bilan shug'ullanuvchi yoki ta'lim muassasalarida o'q otish bo'yicha tayyorgarlikdan o'tayotgan shaxslarga patronlar berish mustasno.

*Oldingi tahrirga qarang.*

12) fuqaroviy qurol va uning o'q-dorilarini hadya etish.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 31-bobi.*

*(9-modda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuniga asosan 12-band bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

### **10-modda. Qurolni va uning o'q-dorilarini olish huquqiga ega bo'lgan subyektlar**

O'zbekiston Respublikasi hududida qurolni va uning o'q-dorilarini olish huquqiga quyidagilar ega:

maxsus organlar va harbiy tuzilmalar;

maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslar;

*Oldingi tahrirga qarang.*

qurolni va uning o'q-dorilarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar;

*(10-moddaning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

qurolni va uning o'q-dorilarini realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar;

*(10-moddaning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

ovchilik va otish sporti sohasidagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar;

qurolni kolleksiyalash yoki ko'rgazmaga qo'yish bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

chet el fuqarolari;

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

### **11-modda. Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini olish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu Qonun 10-moddasining uchinchi — o'ninchi xatboshilarida ko'rsatilgan subyektlar ichki ishlar organlarining amal qilish muddati uch oylik bo'lgan ruxsatnomalari asosida fuqaroviy va xizmat qurolini olish huquqiga ega.

*(11-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqaroviy va xizmat qurolini olishga doir ruxsatnoma unda ko'rsatilgan qurolni hamda uning o'q-dorilarini olish, ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar ularni tashish va saqlash huquqini beradi.

*(11-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Fuqaroviy va xizmat qurolini olishga doir ruxsatnoma qurolni hamda uning o'q-dorilarini olib yurish va qo'llash huquqini bermaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Quyidagilarni olish ichki ishlar organlarining ruxsatnomalarisiz amalga oshiriladi:

*(11-modda to'rtinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

signal beruvchi qurolni va tig'li sovuq ov qurolini — maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslar hamda ovchilik sohasidagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tomonidan olish;  
signal beruvchi qurolni, tig'li sovuq ov qurolini hamda tig'li sovuq va uloqtirish sport qurolini — qurolni realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tomonidan olish;  
tig'li sovuq va uloqtirish sport qurolini — otish sporti sohasidagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tomonidan olish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

tig'li sovuq ov qurolini, o'qotar ov qurolining va pnevmatik qurolning o'q-dorilarini — O'zbekiston Respublikasining ov qilish huquqi berilgan fuqarolari tomonidan olish;

*(11-modda to'rtinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(11-modda to'rtinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuniga asosan 2022-yil 2-sentabrdan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqaroviy va xizmat quroli olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak, bundan ichki ishlar organlarining ruxsatnomasiz olinadigan qurol va uning o'q-dorilari mustasno.

*(11-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qurol ichki ishlar organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilganda qurolni realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxsning realizatsiya qilingan qurol belgilari (turi, xili, modeli, zavod seriyasi va raqami, chiqarilgan yili) ko'rsatilgan holda qurolni olishga doir ruxsatnoma asosida amal qilish muddati uch yil bo'lgan ruxsatnomalar quyidagilarga beriladi:

*(11-modda oltinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslarga, ovchilik va otish sporti sohasidagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarga — qurolni saqlash uchun;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga — qurolni saqlash va olib yurish uchun;

qurolni kolleksiyalash yoki ko'rgazmaga qo'yish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar va fuqarolarga — qurolni kolleksiyalash yoki ko'rgazmaga qo'yish uchun.

Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini olishga, saqlashga, saqlashga va olib yurishga, kolleksiyalashga, ko'rgazmaga qo'yishga doir ruxsatnomaning amal qilish muddatini uzaytirish mazkur ruxsatnomani olish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Tig'li sovuq ov qurolini va signal beruvchi qurolni, o'qotar ov qurolining o'q-dorilarini ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi fuqarosining ovchilar jamoat birlashmasi tomonidan berilgan ovchilik guvohnomasida amalga oshiriladi. Ovchilik guvohnomasidagi ro'yxatdan o'tish to'g'risidagi ma'lumotlar mazkur qurolni olish qonuniy ekanligining tasdig'i bo'ladi hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga uni saqlash, olib yurish, tashish va undan foydalanish huquqini beradi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-mart 138-sonli qarori bilan tasdiqlangan Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini ishlab chiqarish, ta'mirlash va realizatsiya qilish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizom.*

*(11-moddaning sakkizinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

## **12-modda. Maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslar tomonidan qurolni va uning o'q-dorilarini olish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslar qurolni olishga doir ruxsatnoma olish uchun ichki ishlar organlariga quyidagilarni taqdim etadi:

*(12-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

qurolni olishga doir ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza uni olishdan ko'zlangan maqsad, olinadigan qurol va uning o'q-dorilari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda qurolni va uning o'q-dorilarini saqlash uchun maxsus jihozlangan bino (qurolxona) joylashgan yer ko'rsatilgan holda;

qurolni va uning o'q-dorilarini yetkazib berishga doir kontrakt (shartnoma);

arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im kiritilganligini tasdiqlovchi hujjat;

qurol hamda uning o'q-dorilari but saqlanishini, berilishi-qabul qilib olinishini, hisobga olinishini hamda ulardan foydalanilishini ta'minlash majburiyati zimmasiga yuklatilgan yuridik shaxs xodimi tayinlanganligi to'g'risidagi buyruq yoki farmoyish tusidagi boshqa hujjat;

qurolga va uning o'q-dorilariga bo'lgan talab miqdorining hisob-kitobi, qurol va uning o'q-dorilari bilan ta'minlash normalari hisobga olingan holda.

Qurolning sarflangan, yo'qotilgan yoki yo'q qilish uchun topshirilgan o'q-dorilari o'rniga o'q-dorilar olish uchun o'q-dorilar hisobdan chiqarilganligining qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlar (o'q-dorilarni hisobdan chiqarish dalolatnomalari, o'quv-mashq otishlari va boshqa otishlarni o'tkazish chog'ida sarflangan o'q-dorilarga doir tarqatish-topshirish qaydnomalari, o'q-dorilarni yo'q qilish uchun qabul qilib olish (topshirish) dalolatnomalari) qo'shimcha ravishda taqdim etiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qurolni olishga doir ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza ichki ishlar organlari tomonidan ariza barcha zarur hujjatlar bilan olingan kundan e'tiboran o'ttiz ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

*(12-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Qurolni olishga doir ruxsatnomani berish quyidagi asoslarga ko'ra rad etilishi mumkin:

ushbu moddaning **birinchi** va **ikkinchi qismlarida** ko'rsatilgan hujjatlarning to'liq hajmda taqdim etilmaganligi;



qurolning va uning o‘q-dorilarining ishonchli hisobga olinishi va but saqlanishini ta’minlash imkoniyati yo‘qligi yoki ushbu sharoitlar lozim darajada ta’minlanmaganligi;  
taqdim etilgan hujjatlarda noto‘g‘ri yoki buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlarning mavjudligi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

yuridik shaxsning qurol va uning o‘q-dorilari but saqlanishini, berilishi-qabul qilib olinishini hamda hisobga olinishini ta’minlash majburiyati o‘z zimmasiga yuklatilgan yoxud xizmat qurolini olib yurish va undan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan xodimining doimiy yashash joyi mavjud emasligi, xodimda ushbu Qonun 13-moddasi o‘ninchi qismining **ikkinchi, uchinchi, beshinchi — sakkizinchi, o‘ninchi — o‘n uchinchi xatboshilarida** nazarda tutilgan qurolga egalik qilish uchun monelik qiladigan asoslar yuzaga kelganligi, shuningdek ushbu Qonunning **1-ilovasida** ko‘rsatilgan xizmat quroliga egalik qilishga monelik qiladigan kasalliklarning yoki jismoniy nuqsonlarning mavjudligi.

*(12-modda to‘rtinchi qismining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qurolni olishga doir ruxsatnomani berish rad etilgan taqdirda, ichki ishlar organlari bu haqda arizachini rad etish sabablarini, qonunchilikning aniq normalarini va arizachi ko‘rsatilgan sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko‘rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo‘lgan muddatni ko‘rsatgan holda, qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran bir ish kunidan kechiktirmay yozma shaklda xabardor qilishi shart.

*(12-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslarning xodimlari uchun mo‘ljallangan qurolning va uning o‘q-dorilarining turlari, xillari, modellari hamda soni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslar qurol, uning o‘q-dorilari ishlab chiqariladigan va saqlanadigan obyektlarni, jangovar texnikani, ekologik jihatdan o‘ta xavfli ishlab chiqarishlarni, radioaktiv chiqindilar ko‘miladigan joylarni, pul mablag‘lari hamda qimmatliklar tayyorlanadigan va saqlanadigan, qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlar qazib olinadigan, qayta ishlanadigan va saqlanadigan joylarni, shuningdek xavfli yuklarni, pul mablag‘larini va qimmatliklarni, davlat siri yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirlar jumlasiga kiritilgan ma’lumotlar ko‘rsatilgan xat-xabarlar va yuklarni qo‘riqlash bo‘yicha qonunchilik bilan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun jangovar qurolni hamda uning o‘q-dorilarining ayrim xillari va modellarini olish huquqiga ega. Maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslarning jangovar quroldan va uning o‘q-dorilaridan boshqa maqsadlarda foydalanishi taqiqlanadi.

*(12-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maxsus xizmat vazifalariga ega bo‘lgan yuridik shaxsning xodimiga qurol va uning o‘q-dorilari mazkur xodim tasdiqlangan dasturlarga muvofiq har yilgi xizmat-jangovar, ijtimoiy-huquqiy, axloqiy-psixologik hamda jismoniy tayyorgarlik kurslaridan o‘tganidan so‘ng va ushbu Qonun 13-moddasining **o‘ninchi qismida** belgilangan asoslar mavjud bo‘lmagan taqdirda, yuridik shaxs rahbarining qaroriga hamda ichki ishlar organlarining qurolni olib yurishga doir ruxsatnomasiga binoan beriladi.

*(12-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **13-modda. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan fuqaroviy qurolni va uning o‘q-dorilarini olish**

O‘zbekiston Respublikasining yigirma besh yoshga to‘lgan fuqarolari fuqaroviy ov qurolini va uning o‘q-dorilarini olish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari fuqaroviy sport qurolini va o‘zini o‘zi himoya qilish qurolini olish huquqiga ega.

Ov quroli va uning o‘q-dorilari O‘zbekiston Respublikasining ov qilish huquqi berilgan fuqarolari tomonidan olinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi olgan, uning egaligida turgan soyli stvolli o‘qotar ov qurolining umumiy soni uchtdan, pnevmatik ov qurolining umumiy soni uchtdan, silliq stvolli o‘qotar qurolning umumiy soni beshtadan oshmasligi kerak, bundan mazkur qurol turlari kolleksiyalash yoki ko‘rgazmaga qo‘yish obyektlari bo‘lgan hollar mustasno.

Bittadan ortiq har bir soyli stvolli o‘qotar ov quroliga, pnevmatik ov quroliga va silliq stvolli o‘qotar ov quroliga egalik qilganlik uchun har yili bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yig‘im undiriladi, bundan mazkur qurol turlari kolleksiyalash yoki ko‘rgazmaga qo‘yish obyektlari bo‘lgan hollar mustasno.

O‘zbekiston Respublikasining ov qilish huquqi berilgan fuqarolari ovchilikka bog‘liq kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan yoki kamida o‘n yil davomida mulkida avtomatik bo‘lmagan (bir zaryadlovchi) silliq stvolli o‘qotar ov quroliga ega bo‘lgan bo‘lsa hamda ularda ov qilish qoidalarini yoki qurol muomalasini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar mavjud bo‘lmasa, soyli stvolli o‘qotar ov qurolini, shu jumladan aralash o‘qotar qurolni yoxud yarim avtomat silliq stvolli o‘qotar ov qurolini va uning o‘q-dorilarini, o‘qdon (baraban) sig‘imi to‘rt dona patrondan ortiq bo‘lgan silliq stvolli o‘qotar ov qurolini, shuningdek og‘iz qismidagi quvvat oltmish besh jouldan yuqori va kalibri to‘qqiz millimetrdan ortiq bo‘lgan pnevmatik ov qurolini olish huquqiga egadir.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Ov qilish va ovchilik xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni.*

Fuqaroviy qurolni olishga doir ruxsatnomani olish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi doimiy yashash joyi bo‘yicha ichki ishlar organiga quyidagilarni taqdim etishi shart:

arizani;

quroldan xavfsiz foydalanish qoidalariga o‘qish bo‘yicha maxsus qisqa muddatli kurslarda o‘qitilganligi to‘g‘risidagi guvohnomani;

arizani ko‘rib chiqqanlik uchun yig‘im to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatni;

ovchilar jamoat birlashmasi tomonidan berilgan ovchilik guvohnomasini (ov qurolini olish uchun);

ovchilar jamoat birlashmasining tavsiyanomasini (soyli stvolli o‘qotar ov qurolini, yarim avtomat silliq stvolli o‘qotar ov qurolini yoki o‘qdon (baraban) sig‘imi to‘rt dona patrondan ortiq bo‘lgan silliq stvolli o‘qotar ov qurolini, shuningdek og‘iz qismidagi quvvat oltmish besh jouldan yuqori va kalibri to‘qqiz millimetrdan ortiq bo‘lgan pnevmatik ov qurolini olish uchun);

otish sporti sohasidagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxs tomonidan berilgan sportchi guvohnomasini (sport qurolini olish uchun).

Fuqaroviy qurolni olishga doir ruxsatnoma berish to‘g‘risidagi ariza ichki ishlar organlari tomonidan ariza barcha zarur hujjatlar bilan olingan kundan e‘tiboran o‘ttiz kun ichida ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi doimiy yashash joyi o‘zgargan taqdirda, yangi doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan kundan e‘tiboran o‘n kun muddat ichida tegishli ichki ishlar organiga o‘ziga tegishli fuqaroviy qurolni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasining quyidagi fuqarolariga fuqaroviy qurolni olishga doir ruxsatnoma berilmaydi:

ushbu moddaning **birinchi** va **ikkinchi qismlarida** belgilangan yoshga to‘lmaganlarga;

muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlarga;

ushbu moddaning **yettinchi qismida** sanab o‘tilgan hujjatlarni taqdim etmaganlarga yoki taqdim etilgan hujjatlarida noto‘g‘ri yoxud buzib ko‘rsatilgan ma‘lumotlar mavjud bo‘lganda;

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97, 103, 103<sup>1</sup>, 104, 105, 110, 112, 118, 119, 130<sup>1</sup>, 135, 137, 138, 142-moddalarida, 145-moddasining uchinchi qismida, 150, 151, 152, 153, 154, 154<sup>1</sup>, 155, 155<sup>1</sup>, 155<sup>2</sup>, 155<sup>3</sup>, 156, 157, 158, 159, 160, 161, 164, 165, 166-moddalarida, 169-moddasi ikkinchi qismining “v” va “g” bandlarida, uchinchi qismining “a” va “g” bandlarida, to‘rtinchi qismining “b” va “v” bandlarida, 171-moddasi uchinchi qismining “b” va “v” bandlarida, 173-moddasi ikkinchi qismining “a”, “b” bandlarida va uchinchi qismida, 202-moddasi uchinchi qismining “a”, “g”, “d” va “j” bandlarida, 204-moddasining ikkinchi qismida, 216, 216<sup>1</sup>, 216<sup>2</sup>, 217, 218, 219, 220, 221, 222-moddalarida, 223-moddasi ikkinchi qismining “a”, “b” va “v” bandlarida, 226, 229<sup>2</sup>, 235, 242, 244, 244<sup>1</sup>, 244<sup>2</sup>, 244<sup>3</sup>, 245, 246, 247, 248, 249, 251, 251<sup>1</sup>, 252, 254, 255<sup>1</sup>, 264-moddalarida, 267-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida, 270-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida, 271, 273, 274, 276-moddalarida, 277-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida, 278-moddasining ikkinchi qismida, 279-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida, 280-moddasining ikkinchi qismida, 281-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida, 282-moddasida, 283-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida, 285, 286-moddalarida nazarda tutilgan qasddan jinoyat sodir etganlik uchun sudlanganlarga sudlanganlik holati tugallanganligidan yoki olib tashlanganligidan yoxud amnistiya akti qo‘llanilganligidan keyin o‘n yil davomida;

qasddan jinoyatlar sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmaganlarga yoki sudlanganligi olib tashlanmaganlarga, bundan ushbu qismning **beshinchi xatboshisida** ko‘rsatilganlar mustasno;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarda fuqarolarga nisbatan ekstremistik faoliyatning, shuningdek shaxslarning hayoti va sog‘lig‘iga haqiqiy tahdid soluvchi faoliyatning belgilari mavjud bo‘lgan g‘ayriqonuniy harakatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mavjud bo‘lganda;

jinoiy jazoni o‘tayotganlarga;

doimiy yashash joyiga yoki qurol va uning o‘q-dorilari but saqlanishini ta‘minlaydigan saqlash sharoitlariga ega bo‘lmaganlarga;

o‘ziga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilganlarga;

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 185, 220, 220<sup>1</sup> va **221-moddalarida** nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun ma‘muriy javobgarlikka tortilganlarga;

jamoat tartibiga, boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarni sodir etganlik yoki ov qoidalarini buzganlik, shuningdek badanga yengil shikast yetkazganlik va giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni oz miqdorda g‘ayriqonuniy ravishda tayyorlaganlik, olganlik, saqlaganlik, tashiganlik yoki jo‘natganlik uchun bir yil davomida takroran ma‘muriy javobgarlikka tortilganlarga;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq o‘tkazgan va (yoki) zo‘ravonlik sodir etganlarga — himoya orderida qurol olish uchun ruxsatnoma olishga doir huquqni taqiqlash nazarda tutilgan hollarda (himoya orderining amal qilishi yoki unda ko‘rsatilgan muddat davrida);

ushbu Qonunning **2-ilovasida** ko‘rsatilgan fuqaroviy qurolga egalik qilishga monelik qiladigan kasalliklar yoki jismoniy nuqsonlar mavjud bo‘lganda;

ruhiy holatning buzilishlari va (yoki) narkologik kasalliklar sababli dispanser hisobida turgan yaqin qarindoshlari va boshqa shaxslar ushbu fuqarolarning doimiy yashash joyi bo‘yicha birgalikda yashayotganda.

Quroldan xavfsiz foydalanish qoidalariga o‘qitish bo‘yicha maxsus qisqa muddatli kurslarda o‘qitish tartibi va maxsus kurslarda o‘qitilganlik to‘g‘risidagi guvohnomaning shakli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Fuqaroviy qurolni olishga doir ruxsatnoma O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga ularning doimiy yashash joyi bo‘yicha birgalikda yashovchi yaqin qarindoshlarida va boshqa shaxslarda ushbu modda o‘ninchi qismining **uchinchi, beshinchi** va **yettinchi xatboshilarida** nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda ham berilmaydi.

Fuqaroviy qurolni olishga doir ruxsatnoma berish rad etilgan taqdirda, ichki ishlar organlari bu haqda arizachini rad etish sabablarini, qonunchilikning aniq normalarini va arizachi ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddatni ko'rsatgan holda, qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Fuqaroviy qurolni va uning o'q-dorilarini (bundan o'zini o'zi himoya qilish quroli mustasno) birinchi marta olayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ovchilar jamoat birlashmasida (ov quroli uchun) va otish sporti sohasidagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarda (sport quroli uchun) quroldan xavfsiz foydalanish qoidalarini bilishi yuzasidan tekshiruvdan o'tishi shart, ushbu birlashma va yuridik shaxslar quroldan xavfsiz foydalanish qoidalarini bilish yuzasidan tegishli tekshiruvdan o'tkazilganlik to'g'risidagi hujjatlarni beradi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-iyuldagi 455-son "Fuqaroviy qurol va xizmat quroli sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.*

*(13-modda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **13<sup>1</sup>-modda. Qurolga egalik qilishga qarshi ko'rsatmalar mavjud emasligi yuzasidan tibbiy tekshiruv**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va maxsus xizmat vazifalariga ega bo'lgan yuridik shaxslarning xodimlari ichki ishlar organlarining yo'llanmalari bo'yicha quyidagi tartibda davlat sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot muassasalarida (bundan buyon matnda tibbiyot muassasalari deb yuritiladi) qurolga egalik qilishga qarshi ko'rsatmalar mavjud emasligi yuzasidan davriy tibbiy tekshiruvlardan o'tishi kerak:

O'zbekiston Respublikasining birinchi marta qurol va uning o'q-dorilarini olayotgan fuqarolari, shuningdek qurolni saqlashga va olib yurishga, kolleksiyalashga yoki ko'rgazmaga qo'yishga doir ruxsatnomalarning amal qilish muddatlarini uzaytirishda — doimiy yashash joyi bo'yicha tibbiyot muassasalarida;

yuridik shaxsning qurol va uning o'q-dorilari but saqlanishini, berilishi-qabul qilib olinishini, hisobga olinishini ta'minlash majburiyatlari o'z zimmasiga yuklatilgan yoxud xizmat qurolini olib yurish va undan foydalanish huquqidan foydalanadigan xodimlari qurolni saqlashga va (yoki) olib yurishga doir ruxsatnomalarni olishda hamda ularning amal qilish muddatini uzaytirishda — doimiy yashash joyi bo'yicha tibbiyot muassasalarida yoxud maxsus xizmat vazifalariga ega bo'lgan yuridik shaxs va tibbiyot muassasasi o'rtasidagi shartnomaga muvofiq belgilangan tibbiyot muassasalarida.

Ichki ishlar organlarining tibbiy tekshiruvdan o'tishga doir yo'llanmasining amal qilishi muddati u berilgan kundan e'tiboran o'n kuni tashkil etadi.

Tibbiy tekshiruv ushbu Qonunning 1 va 2-ilovalarida ko'rsatilgan kasalliklar yoki jismoniy nuqsonlar mavjud emasligini aniqlash maqsadida pulli asosda o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasining qurolni va uning o'q-dorilarini birinchi marta olayotgan yoki qurolni saqlash va olib yurishga, kolleksiyalashga yoxud ko'rgazmaga qo'yishga doir ruxsatnomalarning amal qilish muddatlarini uzaytirayotgan fuqarosining doimiy yashash joyi bo'yicha birgalikda yashovchi yaqin qarindoshlari hamda boshqa shaxslar doimiy yashash joyi bo'yicha ruhiy kasalliklar va narkologiya dispanserlarida hisobda turishi bo'yicha tekshiriladi.

Davlat sog'liqni saqlash organlarining tibbiy tekshiruvdan o'tkazishni amalga oshirishga ruxsat berilgan tibbiyot muassasalari ro'yxati, tibbiy tekshiruvni o'tkazganlik uchun tariflarning miqdorlari va tibbiy tekshiruv natijalariga doir xulosaning shakli O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

*(13<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrda kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **13<sup>2</sup>-modda. Qurolga egalik qilishga qarshi ko'rsatmalar mavjud emasligi yuzasidan tibbiy tekshiruvdan o'tish tartibi**

Tibbiy tekshiruv tibbiyot muassasasi tomonidan O'zbekiston Respublikasining tekshiruvdan o'tayotgan fuqarosining yoki yuridik shaxs xodimining shaxsini tasdiqlovchi hujjat (identifikatsiyalovchi ID-kartasi, pasporti yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat) ko'rsatilgan holda, ichki ishlar organlarining yo'llanmasi asosida o'tkaziladi.

Tibbiy tekshiruv tibbiyot muassasasi tomonidan ichki ishlar organlarining yo'llanmasi taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida o'tkaziladi.

Tibbiy tekshiruvni o'tkazish uchun tibbiyot muassasasi tomonidan maxsus tibbiy komissiya tuziladi. Tibbiy komissiya tarkibi tibbiyot muassasasining ma'muriyati tomonidan tasdiqlanadi.

Tibbiy komissiya tibbiy tekshiruvdan o'tkazish bilan bog'liq ma'lumotlarni qayd etish uchun tibbiy tekshiruvdan o'tayotgan shaxslarning ambulatoriya kartalarini yuritadi.

Ambulatoriya kartasida tibbiy tekshiruvni o'tkazishda ishtirok etayotgan barcha shifokorlar va mutaxassislarining tibbiy tekshiruvdan o'tayotgan shaxs to'g'risidagi tibbiy xulosalari ko'rsatilishi kerak.

Tibbiy tekshiruvdan o'tayotgan shaxsni tekshirish uning doimiy yashash joyi bo'yicha ruhiy-asab kasalliklari va narkologiya dispanserlarida tibbiy komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiyot muassasasi tibbiy komissiyaning tibbiy tekshiruv natijalari bo'yicha qurolga egalik qilishga qarshi ko'rsatmalar mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risidagi xulosasini elektron shaklda rasmiylashtiradi hamda tibbiy tekshiruv o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir ish kuni ichida xulosa yo'llanma bergan ichki ishlar organiga axborotning maxfiyligi ta'minlangan holda, pochta aloqasi vositalari yoki axborot tizimi orqali yuboriladi.

Xulosa tibbiy komissiya rahbarining imzosi va tibbiyot muassasasining muhri bilan tasdiqlanadi.

Tibbiy komissiyaning xulosasi berilgan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida amal qiladi.

*(13<sup>2</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrda kuchga kiradi)*

### **14-modda. Qurolni va uning o'q-dorilarini olish huquqiga ega bo'lgan boshqa subyektlar tomonidan qurolni va uning o'q-dorilarini olish**

Ushbu Qonun 10-moddasining **to'rtinchi — yettinchi xatboshilarida** ko'rsatilgan yuridik shaxslar xizmat va ustav vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan tegishli qurolni va uning o'q-dorilarini mazkur Qonun 12-moddasining **birinchi — beshinchi qismlarida** belgilangan tartibda olish huquqiga ega.

### **15-modda. Qurolni va uning o'q-dorilarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish va O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish va O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ruxsatnomalariga ko'ra amalga oshiriladi.

*(15-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrda kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Uchinchi mamlakatlarning qurolli kuchlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan qurolni va uning o'q-dorilarini O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda ularga binoan qabul qilingan xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

*(15-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

#### **16-modda. Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini ishlab chiqarish**

Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar bunday turdagi qurolni hamda uning o'q-dorilarini ishlab chiqarish uchun litsenziyaga ega bo'lishi, ishlab chiqarish xavfsizligi talablarini, ishlab chiqarish ustidan nazoratni, shuningdek ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini va but saqlanishini ta'minlashi shart.

Silliq stvolli ov quroli uchun patronlarning anjomlari silliq stvolli ov qurolini saqlash va olib yurishga doir ruxsatnoma asosida shu qurol egasi tomonidan shaxsiy foydalanish uchun ishlab chiqarilishi mumkin. O'qotar qurolni ta'mirlash va uning butlovchi qismlarini almashtirish shu qurolning egasi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin, bundan o'qotar qurolning asosiy qismlari mustasno.

#### **17-modda. Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini realizatsiya qilish**

Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar:

fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini realizatsiya qilish uchun litsenziyaga ega bo'lishi;

fuqaroviy va xizmat qurolining hamda uning o'q-dorilarining but saqlanishini, ularni saqlash xavfsizligini ta'minlashi;

xaridordan muayyan qurol turini olishga doir ruxsatnomani ko'rsatishini talab qilishi;

olinayotgan va realizatsiya qilinayotgan fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari hisobga olinishini, shuningdek hisobga olish hujjatlari o'n yil mobaynida saqlanishini ta'minlashi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

realizatsiya qilinayotgan o'zini o'zi himoya qilish qurolini, tig'li sovuq ov qurolini va signal beruvchi qurolni, o'qotar ov qurolining o'q-dorilarini ro'yxatdan o'tkazishi;

*(17-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(17-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuniga asosan 2022-yil 2-sentabrdan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son)*

Muayyan qurol turini olishga doir ruxsatnomani taqdim etmagan jismoniy va yuridik shaxslarga fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini, shuningdek raqami va ishlab chiqaruvchining tamg'asi mavjud bo'lmagan qurolni realizatsiya qilish taqiqlanadi.

Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini realizatsiya qilish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarning bitta savdo zalida qurolni va boshqa turdagi tovarlarni realizatsiya qilishi taqiqlanadi, bundan sport, ov va baliq ovlash ashyolari, qurolning ehtiyot qismlari va pirotexnika buyumlari mustasno.

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **18-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan fuqaroviy qurolni hamda uning o'q-dorilarini sotish, meros qilib olish**

*(18-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘z mulkidagi fuqaroviy qurolni hamda uning o‘q-dorilarini ichki ishlar organlarining fuqaroviy qurolni realizatsiya qilishga doir ruxsatnomalari asosida, fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini realizatsiya qilish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar orqali sotish huquqiga ega.

*(18-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqaroviy qurolni va uning o‘q-dorilarini meros qilib olish merosxo‘rda mazkur turdagi qurolni olishga doir ruxsatnoma mavjud bo‘lgan taqdirda, qurol ichki ishlar organlarida qayta ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng amalga oshiriladi. Fuqaroviy qurolni olishga doir ruxsatnomani olish rad etilgan taqdirda, fuqaroviy qurol fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini realizatsiya qilish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar orqali realizatsiya qilinishi yoki ichki ishlar organlariga tekin asosda topshirilishi kerak.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-dekabrda 810-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va chet el fuqarolarining qurol va uning o‘q-dorilari muomalasi sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risidagi nizom.*

*(18-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

## **19-modda. Qurol bilan mukofotlash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maxsus organlarning va harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari hamda xodimlari ularning rahbarlari buyruqlari asosida olgan qurol, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, chet davlatlar rahbarlarining hamda chet davlatlar hukumatlari rahbarlarining mukofotlashga oid hujjatlari asosida olingan qurol mukofot qilingan quroldir. Mukofot qilingan qurolni saqlashga va olib yurishga doir ruxsatnoma ichki ishlar organlari tomonidan beriladi.

*(19-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Mukofot qilingan qurolni saqlash va olib yurishga doir ruxsatnomaning amal qilish muddati cheklanmaydi.

Qatorasiga o‘q uzish imkoniyatini beradigan, shuningdek ushbu Qonunning 9-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalasi taqiqlangan qurol mukofot qilinadigan qurol bo‘lishi mumkin emas.

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi qatorasiga o‘q uzish imkoniyatini beradigan, shuningdek ushbu Qonunning 9-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalasi taqiqlangan qurol bilan mukofotlangan taqdirda, ushbu qurol olingan kundan e‘tiboran bir kunlik muddatda ichki ishlar organiga topshirilishi lozim.

*(19-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Mukofotga berilgan jangovar yoki xizmat qurolini sotishga va meros qilib olishga, shuningdek uning o‘q dorilarini olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

*(19-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

## **20-modda. Yuridik shaxslar tomonidan fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini realizatsiya qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu Qonun 10-moddasining **uchinchi**, **to‘rtinchi**, **oltinchi** va **yettinchi** xatboshilarida ko‘rsatilgan yuridik shaxslar o‘zida qonuniy asoslarda turgan fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini ichki ishlar organlarining qurolni va uning o‘q-dorilarini realizatsiya qilishga doir ruxsatnomalari asosida, fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini realizatsiya qilish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar orqali, ushbu qurolni va uning o‘q-dorilarini keyinchalik ichki ishlar organlarida qayta ro‘yxatdan o‘tkazish sharti bilan realizatsiya qilish huquqiga ega.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-mart 138-sonli qarori bilan tasdiqlangan Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini ishlab chiqarish, ta‘mirlash va realizatsiya qilish bo‘yicha faoliyatni litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi **nizom**.*

*(20-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

## **21-modda. Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini saqlash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari, fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ichki ishlar organlarining qurolni saqlashga yoki saqlash va olib yurishga doir ruxsatnomalari asosida fuqaroviy hamda xizmat qurolini va uning o‘q-dorilarini saqlash huquqiga ega.

*(21-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o‘q-dorilari ularning but saqlanishini, xavfsiz saqlanishini ta‘minlaydigan hamda ulardan begona shaxslar foydalanishini istisno etadigan sharoitlarda, qulflanadigan seyflarda yoki metall shkaflarda saqlanishi kerak.

Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini saqlash yuridik shaxslar tomonidan alohida ajratilgan, maxsus jihozlangan va texnik jihatdan mustahkamlangan, qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiyasi, qo‘riqlash va jismoniy himoyaning boshqa texnik vositalari bilan jihozlangan qurolxonalardagi qulflanadigan seyflarda yoki metall shkaflarda amalga oshiriladi.

Sport o‘qotar qurolini va uning o‘q-dorilarini, shu jumladan soyli stvolli sport qurolini yoki og‘iz qismidagi quvvat 3 jouldan yuqori va kalibri 4,5 millimetrdan ortiq bo‘lgan pnevmatik sport qurolini, shuningdek tig‘li sovuq va uloqtirish sport qurolini saqlash sport obyektlari hududida jihozlangan qurolxonalardagi qulflanadigan seyflarda yoki metall shkaflarda amalga oshiriladi.

Fuqaroviy qurolni va uning o‘q-dorilarini saqlash O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan ularning doimiy yashash joyida amalga oshiriladi.

Ov yoki otish sporti bilan shug‘ullanishni amalga oshirish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan fuqaroviy qurolni va uning o‘q-dorilarini saqlash begona shaxslarning quroldan foydalanishini istisno etadigan shartlarga rioya etgan holda amalga oshirilishi kerak.

Chet el fuqarolari tomonidan O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha bo‘lish davrida olingan fuqaroviy qurolni va uning o‘q-dorilarini saqlashga fuqaroviy qurol hamda uning o‘q-dorilari olingandan keyin besh kun mobaynida ruxsat etiladi.



Chet el fuqarolari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududiga ov qilish, sport tadbirlarida ishtirok etish yoki ko‘rgazmaga qo‘yish maqsadlarida olib kirilgan fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini vaqtincha saqlash chet el fuqarolariga taklifnomani rasmiylashtirgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jismoniy va yuridik shaxslarning o‘zi topib olgan yoki o‘ziga topshirilgan, lekin o‘zi mulkdori bo‘lmagan qurolni hamda uning o‘q-dorilarini saqlashi va ulardan foydalanishi taqiqlanadi. Bunday qurol hamda uning o‘q-dorilari darhol, biroq bir sutkadan kechiktirmay ichki ishlar organlariga topshirilishi lozim.

*(21-moddaning to‘qqizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Qurolni va uning o‘q-dorilarini o‘z ixtiyori bilan topshirganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdirlash choralari belgilanishi mumkin.

O‘qotar qurolni va uning o‘q-dorilarini ixtiyoriy tartibda topshirgan shaxslarga uni olish bo‘yicha imtiyozli huquq beriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo‘shimcha ma‘lumot uchun qarang: Muomalada bo‘lgan ro‘yxatga olinmagan o‘qotar qurol va uning o‘q-dorilarini, portlovchi moddalar va portlatish qurilmalarini ichki ishlar organlari ixtiyoriga topshirish qoidalari (28.09.2017-y., ro‘yxat raqami 2932).*

## **22-modda. Qurolni va uning o‘q-dorilarini kolleksiyalash hamda ko‘rgazmaga qo‘yish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jismoniy va yuridik shaxslar ichki ishlar organlarining ruxsatnomalari asosida qurolni hamda uning o‘q-dorilarini kolleksiyalash va ko‘rgazmaga qo‘yish huquqiga ega.

*(22-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ilmiy-texnikaviy, badiiy, kriminalistik, tarixiy, axborot, bilim orttirish maqsadlarida hamda boshqa maqsadlarda to‘plamlar tuzish uchun qurolni va uning o‘q-dorilarini yig‘ish hamda saqlash kolleksiya deb e‘tirof etiladi.

Qurolni va uning o‘q-dorilarini muzeybop tarzda kolleksiyalash yuridik shaxslar tomonidan ana shu maqsadlar uchun mo‘ljallangan alohida, maxsus binolarda amalga oshiriladi.

Qurolni va uning o‘q-dorilarini muzey binolarida saqlash ularning but saqlanishini, saqlash xavfsizligini ta‘minlaydigan va ularga begona shaxslar kirishini istisno etadigan sharoitlarda amalga oshirilishi kerak.

Qurolni muzey binolaridan tashqarida ko‘rgazmaga qo‘yishga faqat signalizatsiya bilan jihozlangan yopiq vitrinalar va stendlarda yo‘l qo‘yiladi.

Qurolni va uning o‘q-dorilarini kolleksiyalash jismoniy shaxslar tomonidan o‘zining doimiy yashash joyida, ularning but saqlanishini, saqlash xavfsizligini ta‘minlaydigan va ularga begona shaxslar kirishini istisno etadigan shartlarga rioya etgan holda, qulflanadigan seyflarda yoki metall shkaflarda amalga oshiriladi.

Qurolning o‘q-dorilari faqat o‘qsizlantirilgan holda ko‘rgazmaga qo‘yilishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ichki ishlar organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilmagan quroldan ko‘rgazmaga qo‘yish uchun foydalanish taqiqlanadi.

*(22-moddaning sakkizinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Qurolni va uning o‘q-dorilarini ko‘rgazmaga qo‘yishga doir ruxsatnomaga ega bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar ko‘rgazmani tashkil etish chog‘ida:

binolarni ijaraga olish, qurolni va uning o‘q-dorilarini ko‘rgazmaga qo‘yish tartibi, ularning but saqlanishini ta‘minlash to‘g‘risida shartnomalar tuzishi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

chet ellik ishtirokchilar uchun O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ularga tegishli qurolni va uning o‘q-dorilarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishga doir ruxsatnomasini, shuningdek ularni tashishga doir ruxsatnomasini olishi;

*(22-modda to‘qqizinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

ko‘rgazmaga qo‘yish rejalarini va ekspozitsiyalarni joylashtirish sxemalarini ko‘rgazma o‘tkaziladigan joydagi ichki ishlar organlariga kelishib olish uchun taqdim etishi;

*(22-modda to‘qqizinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

ko‘rgazmaga qo‘yilgan qurol va uning o‘q-dorilari joylashtiriladigan hamda saqlanadigan joylarga begona shaxslarning ruxsatsiz kirishiga yo‘l qo‘ymasligi;

qurol va uning o‘q-dorilari ekspozitsiyalari ochiq vitrinalar va stendlarda joylashtirilgan taqdirda, qurolni hamda uning o‘q-dorilarini har kuni ko‘rgazma ishi tugagach saqlash uchun ular but saqlanishini ta‘minlashga doir talablarga binoan jihozlangan xonalarda saqlash uchun topshirishi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-dekabrda 810-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yuridik shaxslarning qurol va uning o‘q-dorilari muomalasi sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risidagi nizom.*

### **23-modda. Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini olib yurish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini olib yurish muayyan turdagi, xildagi va modeldagi qurolni olib yurish, saqlash hamda olib yurish uchun ichki ishlar organlari tomonidan berilgan ruxsatnomalar asosida quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

*(23-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

maxsus xizmat vazifalariga ega yuridik shaxslarning xodimlari tomonidan — xizmat majburiyatlarini bajarishi chog‘ida;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan — ov qilinadigan, sport tadbirlari yoki otish mashqlari o‘tkaziladigan joylarda, o‘quv maqsadida, o‘zini o‘zi himoya qilish maqsadida.

O‘zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan chet el fuqarolari o‘zlariga tegishli fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini ov yoki sport tadbirlari o‘tkaziladigan joylarda olib yurishi mumkin.

Uzun stvolli o‘qotar qurolni olib yurish g‘ilofidan olingan holatda, himoyalagichga qo‘yilgan o‘qlangan o‘qdon (baraban) bilan, kalta stvolli o‘qotar qurolni olib yurish esa xuddi shunday holatda g‘ilofda amalga oshiriladi.

Patronni o‘qdonga yuborishga faqat qurolni qo‘llash zarurati bo‘lganda yoxud zaruriy mudofaa holatida yoki oxirgi zarurat holatida fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i hamda mol-mulkini, shuningdek yuridik shaxslarning mol-mulkini himoya qilish uchun ruxsat etiladi.

Yaroqlilik, saqlash yoki foydalanish muddati o‘tgan texnik jihatdan nosoz fuqaroviy va xizmat qurolidan hamda uning o‘q-dorilaridan, shu jumladan gazli qurolidan foydalanish taqiqlanadi,

bundan tadqiqot ishlarini va sinovlarni o'tkazish yoxud qurolning hamda uning o'q-dorilarining texnik holatini tekshirish hollari mustasno.

Jismoniy shaxslar ov vaqtida ov qurolini va uning o'q-dorilarini olib yurganda shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, ovchilar jamoat birlashmasi tomonidan berilgan ovchilik guvohnomasini, ov qilish huquqiga doir hujjatlarni, qurolni saqlash va olib yurishga doir ruxsatnomani yonida olib yurishi shart.

Fuqaroviy va xizmat qurolini saqlash hamda olib yurish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar ulardan xavfsiz foydalanishga doir belgilangan qoidalarni bajarishi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-mart 138-sonli qarori bilan tasdiqlangan Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini ishlab chiqarish, ta'mirlash va realizatsiya qilish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash tartibi to'g'risidagi [nizom](#).*

## **24-modda. Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini tashish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Yuridik shaxslar o'zlariga tegishli fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini ichki ishlar organlarining fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini tashish uchun amal qilish muddati uch oy bo'lgan ruxsatnomalari asosida tashish huquqiga ega.

*(24-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini tashish uchun yuridik shaxslar: tashish uchun tuzilishi yukni begona shaxslarning ko'rish va unga kirishi imkoniyatini istisno etadigan texnik jihatdan soz transport vositalarini ajratishi; qurolni va uning o'q-dorilarini zavod o'rovida yoxud so'rg'ichlangan yoki plombalangan maxsus idishda tashishi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'n donadan ko'p miqdordagi o'qotar qurol yoki uning besh yuz donadan ortiq miqdordagi o'q-dorilari turkumi olib borilayotgan yo'lda ichki ishlar organlarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining yoki idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash organlarining qurolli qo'riqchilari tomonidan kuzatib borilishini ta'minlashi shart.

*(24-modda ikkinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Fuqaroviy va xizmat quroli tashish chog'ida o'q-dorilardan alohida, o'qi chiqarib olingan holatda bo'lishi kerak.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini tashiyotgan transport vositasining ochilganligi, idishning shikastlanganligi, muhrlarning izlari yoki plombalar buzilganligi alomatlari aniqlangan taqdirda, qurolli qo'riqchilar boshlig'i bu haqda darhol ichki ishlar organlariga xabar qilishi, dalolatnoma tuzishi, sodir bo'lgan holatning sabablarini aniqlash yuzasidan zarur choralar ko'rish hamda hodisa joyi qo'riqlanishini ta'minlashi shart.

*(24-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ichki ishlar organlarining fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini tashishga doir ruxsatnomalarisiz:

yuridik shaxslar tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududi doirasida, mazkur qurollarni va uning o'q-dorilarini ichki ishlar organlari ro'yxatga olgan joyda;

jismoniy shaxslar tomonidan ov quroli, silliq stvolli sport quroli va uning o'q-dorilarini ovda hamda sport tadbirlarida ishtirok etish uchun ichki ishlar organlarining mazkur turdagi qurolni saqlash va olib yurishga doir ruxsatnomalari asosida;

jismoniy shaxslar tomonidan o'zini o'zi himoya qilish qurolini ichki ishlar organlarining mazkur turdagi qurolni saqlash va olib yurishga doir ruxsatnomalari asosida;

ushbu Qonun 11-moddasining **to'rtinchi qismiga** muvofiq ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tkazilmaydigan fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini tashish amalga oshiriladi.

*(24-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Jismoniy shaxslarga tegishli fuqaroviy va xizmat qurolini tashish jildlarda, qinlarda yoki maxsus g'iloalarda amalga oshiriladi.

### **25-modda. Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini hisobga olish**

Yuridik shaxslar fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari hisobini yuritishi, ularning but saqlanishini, ularni saqlash va ulardan foydalanish xavfsizligini ta'minlashi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2015-yil 30-iyundagi 105-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Qurol va uning o'q-dorilarini hisobga olish kitoblari hamda ularni berish va qabul qilish jurnallarini yuritish tartibiga qo'yiladigan yagona talablar (2015-yil 29-iyul, ro'yxat raqami 2702).*

### **26-modda. Fuqaroviy va xizmat qurolining qo'llanilishi**

Fuqaroviy va xizmat qurolini saqlash hamda olib yurish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar zaruriy mudofaa holatida yoki oxirgi zarurat holatida o'z hayoti va sog'lig'ini, boshqa fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini hamda mol-mulkni himoya qilish uchun qurolni qo'llashi mumkin. Fuqaroviy va xizmat quroli qo'llanilishidan avval bu haqda o'ziga qarshi qurol qo'llanilayotgan shaxs aniq ifodalangan tarzda ogohlantirilishi kerak, bundan shunday ogohlantirishning imkoni bo'lmagan yoxud qurolning qo'llanilishini kechiktirish fuqarolarning va qurol egasining hayotiga bevosita xavf tug'diradigan yoki boshqa og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno. Bunda zaruriy mudofaa holatida qurolning qo'llanilishi uchinchi shaxslarga zarar yetkazmasligi kerak.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari ko'rinib turgan shaxslarga, yoshi aniq ko'rinib turgan yoki ma'lum bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan fuqaroviy va xizmat qurolini qo'llash taqiqlanadi, bundan ularning qurolli qarshilik ko'rsatganligi, fuqarolarning yoxud qurolni qo'llayotgan shaxsning hayoti va sog'lig'iga tahdid etib hujum qilganligi hollari mustasno.

Fuqaroviy va xizmat quroli qo'llanilgan, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilishiga olib kelgan har bir holat to'g'risida qurol egasi qurol qo'llanilgan joydagi ichki ishlar organiga darhol xabar qilishi shart.

Fuqaroviy va xizmat quroli qo'llanilganligi natijasida fuqarolarning sog'lig'iga zarar yetkazilgan taqdirda, mazkur qurol egasi badaniga shikast yetgan fuqarolarga birinchi yordam ko'rsatishi, shuningdek ularga imkon qadar qisqa muddatda birinchi tibbiy yordam berilishi choralarini ko'rishi shart.

Fuqaroviy va xizmat quroli qo'llanilganligi natijasida fuqarolarning hayotiga, sog'lig'iga hamda mol-mulkiga zarar yetkazilgan har bir holat to'g'risida ichki ishlar organlari darhol prokurorga xabar qiladi.

Fuqaroviy qurolni ov va sport bilan shug'ullanish uchun qo'llash, shuningdek xizmat qurolini qo'llash qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **27-modda. Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari egalarining huquq va majburiyatlari**

Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari egalari quyidagi huquqlarga ega:

fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini realizatsiya qilish, kolleksiyalash va ko'rgazmaga qo'yish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

fuqaroviy qurol va uning o'q-dorilarini meros qilib olish;

*(27-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

fuqaroviy va xizmat qurolidan hamda uning o'q-dorilaridan o'z mo'ljallangan maqsadi bo'yicha foydalanish;

tegishli ruxsatnoma bo'lgan taqdirda, fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini saqlash va olib yurish.

Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari egalari:

*Oldingi tahrirga qarang.*

o'z mulkidagi fuqaroviy qurolni ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tkazishi (qayta ro'yxatdan o'tkazishi), bundan ushbu Qonun 11-moddasining to'rtinchi qismida ko'rsatilgan hollar mustasno;

*(27-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini tashishning ushbu Qonunda belgilangan tartibiga rioya etishi;

fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari but saqlanishini ta'minlashi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

qurol to'g'risidagi qonunchilikning talablariga rioya etilishini tekshirish uchun ichki ishlar organlari xodimlarining fuqaroviy va xizmat quroli saqlanadigan obyektlar hududiga hamda joylarga soat 6-00 dan 22-00 gacha moneliksiz kirishini ta'minlashi, tanishib chiqish uchun ularga zarur hujjatlarni taqdim etishi;

*(27-modda ikkinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

ovchilarning jamoat birlashmasida (ov quroli uchun) va otish sporti sohasidagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarda (sport quroli uchun) qurol bilan xavfsiz muomalada bo'lish qoidalariga oid bilimlarining tekshiruvidan o'tishi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

ichki ishlar organlarining yo'llanmasi bo'yicha qurolga egalik qilishga qarshi ko'rsatmalar mavjud emasligi yuzasidan tibbiy tekshiruvdan o'tishi;

*(27-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuniga asosan yettinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(27-modda ikkinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuniga asosan 2022-yil 2-sentabrdan chiqariladi — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

doimiy yashash joyi o'zgargan taqdirda, yangi doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida tegishli ichki ishlar organiga o'ziga tegishli fuqaroviy qurolni qayta ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishi shart.

*(27-modda ikkinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

## **28-modda. Qurolni va uning o'q-dorilarini olib qo'yish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qurolni va uning o'q-dorilarini olib qo'yish ichki ishlar organlari tomonidan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

*(28-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

qurol va uning o'q-dorilari muomalasi qoidalari jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan buzilganda;

qurolning mulkdori bo'lgan fuqaro vafot etganda mol-mulkni meros qilib olish masalasi hal bo'lguniga qadar, shuningdek qonuniy asoslarda jangovar yoki xizmat quroliga ega bo'lgan fuqaro vafot etganda;

qurolning mulkdori bo'lgan fuqaro bedarak yo'qolgan deb topilganda, shuningdek mol-mulkni meros qilib olish to'g'risidagi masala hal bo'lguniga qadar fuqaro vafot etgan deb e'lon qilinganda;

litsenziat yoki qurol muomalasiga doir ruxsatnoma egasi bo'lgan yuridik shaxs tugatilganda; fuqaroviy va xizmat quroli muomalasi sohasidagi ruxsatnomalar to'xtatib turish uchun asos bo'lgan masala hal etilgunga qadar to'xtatib turilganda;

fuqaroviy va xizmat quroli muomalasi sohasidagi litsenziyalar hamda ruxsatnomalar tugatilganda, bekor qilinganda;

*Oldingi tahrirga qarang.*

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan shaxsning fuqaroviy qurolni saqlash va olib yurish huquqi himoya orderining amal qilishi yoki unda ko'rsatilgan muddat davrida cheklanganda;

*(28-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi O'RQ-640-sonli Qonuniga asosan sakkizinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

ushbu Qonun 13-moddasi o'ninchi qismining beshinchi, oltinchi, yettinchi, o'n to'rtinchi va o'n beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan qurolga egalik qilishga monelik qiladigan holatlar yuzaga kelganda;

*(28-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuniga asosan to'qqizinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

aniq holatlarga bog'liq ravishda favqulodda holat joriy etilganda.

Qurolni va uning o'q-dorilarini olib qo'yish quyidagilar tomonidan ham amalga oshiriladi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik buzilgan hollarda, ov, baliq ovlash, tabiatni va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar tomonidan o'z vakolatlari doirasida, keyinchalik qurol va uning o'q-dorilari huquqbuzarlik sodir etilgan joydagi ichki ishlar organlariga topshirilgan holda;

*(28-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bojxona to'g'risidagi qonunchilik buzilgan hollarda, bojxona organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida, keyinchalik qurol va uning o'q-dorilari huquqbuzarlik sodir etilgan joydagi ichki ishlar organlariga topshirilgan holda;

*(28-modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

boshqa organlar tomonidan o'z vakolatlari doirasida.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Olib qo'yilgan, shuningdek musodara qilingan qurol va uning o'q-dorilari ichki ishlar organlariga topshirilishi lozim. Bunda olib qo'yilgan, jinoyat ishlari bo'yicha ashyoviy dalil deb topilgan qurol va uning o'q-dorilari jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibda topshiriladi.

*(28-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Olib qo'yilgan, texnik jihatdan foydalanishga yaroqli bo'lgan qurol va uning o'q-dorilari qurolni realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar orqali realizatsiya qilinishi bunda sotuvdan tushgan summa qurolning va uning o'q-dorilarining sobiq egasiga olib qo'yilgan buyumni realizatsiya qilishga doir xarajatlar chegirib tashlangan holda berilishi lozim.

*(28-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Olib qo'yilgan, texnik jihatdan foydalanish uchun yaroqsiz bo'lgan, shuningdek yasama, qaytadan yasalgan va O'zbekiston Respublikasi hududida muomalasi taqiqlangan qurol hamda uning o'q-dorilari ichki ishlar organlari tomonidan yo'q qilib tashlanadi yoki maxsus organlar va harbiy tuzilmalar kolleksiyasiga topshiriladi.

*(28-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Texnik jihatdan nosoz yoxud yaroqlilik, saqlash yoki foydalanish muddati o'tgan olib qo'yilgan gazli qurol ichki ishlar organlariga yo'q qilib tashlash uchun tekin topshiriladi.

*(28-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Qurolni va uning o'q-dorilarini olib qo'yish haqida bayonnoma (dalolatnoma) tuzilib, unda olib qo'yilayotgan qurolning turi, xili, modeli, kalibri, seriyasi va raqami, shuningdek o'q-dorilarning turi hamda miqdori ko'rsatiladi yoxud bu haqda tegishli yozuv yozib qo'yiladi.

#### **4-bob. Chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari va ularga tenglashtirilgan tashkilotlar, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar quroli hamda uning o'q-dorilari muomalasining o'ziga xos xususiyatlari**

##### **29-modda. Fuqaroviy qurolni va uning o'q-dorilarini chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan olish.**

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ushbu Qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan tartibda fuqaroviy qurolni va uning o'q-dorilarini olish huquqiga ega.

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan chet el fuqarolari o'zlari fuqarosi bo'lgan chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari va ularga tenglashtirilgan tashkilotlarning iltimosnomalari asosida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan berilgan qurol olishga doir ruxsatnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida fuqaroviy qurolni va uning o'q-dorilarini olish huquqiga ega. Olingan fuqarolik quroli va uning o'q-dorilari ular olingan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilishi lozim.

*(29-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

**30-modda. Chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari va ularga tenglashtirilgan tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga qurolni va uning o'q-dorilarini olib kirish hamda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish, O'zbekiston Respublikasi hududida saqlash, olib yurish va ulardan foydalanish**

Chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari va ularga tenglashtirilgan tashkilotlarning binolari hamda xodimlari xavfsizligini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga qurolni va uning o'q-dorilarini olib kirish hamda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish, O'zbekiston Respublikasi hududida saqlash, olib yurish va ulardan foydalanish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik vakolatxonalari, konsullik muassasalari va ularga tenglashtirilgan tashkilotlar xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga fuqaroviy qurolni va uning o'q-dorilarini olib kirish hamda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Mazkur qurolni va uning o'q-dorilarini O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tkazish, saqlash, olib yurish va ulardan foydalanish ushbu Qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**31-modda. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga fuqaroviy qurolni hamda uning o'q-dorilarini olib kirish va O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish, O'zbekiston Respublikasi hududida saqlash, olib yurish va ulardan foydalanish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar turistik faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyasi mavjud bo'lgan yuridik shaxsning taklifnomasi, ushbu yuridik shaxs bilan ov qilish uchun tuzilgan shartnoma yoki sport tadbirlarida ishtirok etish uchun taklifnoma mavjud bo'lgan hamda fuqaroviy qurol muomalasiga ushbu Qonunda nazarda tutilgan cheklovlarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan beriladigan tegishli ruxsatnoma mavjud bo'lgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi hududiga ov va sport qurolini hamda uning o'q-dorilarini olib kirishi mumkin. Olib kirilgan ov va sport quroli hamda uning ishlatilmagan o'q-dorilari shartnomada yoki taklifnomada belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilishi kerak.

*(31-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasida turgan davrda fuqaroviy qurolni va uning o'q-dorilarini O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan qurol olish uchun berilgan ruxsatnomalarga ko'ra saqlashi mumkin.

*(31-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ushbu Qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan tartibda fuqaroviy qurolni va uning o'q-dorilarini saqlash, olib yurish hamda ulardan foydalanish huquqiga ega.



Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga o'zini o'zi himoya qilish qurolini olib kirish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan fuqaroviy qurolni va uning o'q-dorilarini olib chiqish muddatlarining, shuningdek ularni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish hamda ulardan O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanish tartibining buzilishi ularning olib qo'yilishiga sabab bo'ladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-dekabr 810-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet el fuqarolarining qurol va uning o'q-dorilari muomalasi sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risidagi [nizom](#).*

## **5-bob. Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari muomalasi sohasida litsenziyalar va ruxsatnomalar berish**

### **32-modda. Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari muomalasining litsenziyalash-ruxsat berish tizimi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi hududida fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini ishlab chiqarish, ta'mirlash va realizatsiya qilish belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan beriladigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

*(32-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini olish, realizatsiya qilish, saqlash, olib yurish, tashish, kolleksiyalash, ko'rgazmaga qo'yishga, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish hamda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqishga, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilishga doir ruxsatnomalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda ichki ishlar organlari tomonidan beriladi.

*(32-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 138-son qarori bilan tasdiqlangan Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini ishlab chiqarish, ta'mirlash va realizatsiya qilish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash tartibi to'g'risida [nizom](#).*

### **33-modda. Fuqaroviy va xizmat quroli muomalasi sohasida ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi, uning amal qilish muddati uzaytirilganligi uchun yig'im**

Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini olish, realizatsiya qilish, saqlash, olib yurish, tashish, kolleksiyalash, ko'rgazmaga qo'yishga, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish hamda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqishga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilishga doir ruxsatnoma (bundan buyon matnda ruxsatnoma deb yuritiladi) berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi va ruxsatnomaning amal qilish muddati uzaytirilganligi uchun yig'im undiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi va uning amal qilish muddati uzaytirilganligi uchun yig'im summolari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining hisobvarag'iga o'tkaziladi.

*(33-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

#### **34-modda. Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish**

Ruxsatnomaning amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin:  
ruxsat berishga doir talablar va shartlar ruxsatnomaning egasi tomonidan buzilganligi aniqlanganda;

*Oldingi tahrirga qarang.*

ruxsatnoma egasi zimmasiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi sud qarori yoki ichki ishlar organining ko'rsatmasi bajarilmaganda.

*(34-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish sud tartibida amalga oshiriladi, ruxsatnomaning amal qilishi qurol va uning o'q-dorilari yo'qolishi yoki talon-toroj qilinishi xavfining oldini olish bilan bog'liq holda o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib turilgan taqdirda esa ichki ishlar organi tomonidan ham amalga oshiriladi.

*(34-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ichki ishlar organining ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori uning egasiga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay, ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish sabablari va qonunchilikning aniq normalari ko'rsatilgan holda yozma yoki elektron (mavjud bo'lgan taqdirda) shaklda yetkaziladi.

*(34-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi sudning qarori uning egasiga qonunchilikda belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

*(34-moddaning uchinchi va to'rtinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ichki ishlar organi yoki sud ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarning ruxsatnoma egasi tomonidan bartaraf qilinishi muddatini belgilashi shart. Bunda ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarni bartaraf etish uchun belgilangan muddat besh ish kunidan kam bo'lmazligi kerak.

*(34-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish muddati uning umumiy amal qilish muddatiga kirmaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar ruxsatnoma egasi tomonidan bartaraf etilgan taqdirda, ichki ishlar organi yoki sud ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganligi haqida tasdiqnoma olingan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida ruxsatnomaning amal qilishini qayta tiklash to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

*(34-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ichki ishlar organining ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish sud tomonidan asossiz deb topilgan taqdirda, ichki ishlar organi ruxsatnoma egasi oldida u ko'rgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

*(34-moddaning sakkizinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

### **35-modda. Ruxsatnomaning amal qilishini tugatish**

Ruxsatnomaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

ruxsatnoma egasi uning amal qilishini tugatish to'g'risida ariza bilan murojaat etganda;

yuridik shaxs bo'lgan ruxsatnoma egasi tugatilganda — tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda — qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, bundan uning o'zgartirilishi mustasno, shuningdek qo'shilish natijasida qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarda yangidan paydo bo'lgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida ayni o'sha harakatni va (yoki) faoliyatni bajarish va (yoki) amalga oshirishga doir ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat mavjud bo'lganda;

ovchilik guvohnomasining amal qilishi tugatilganda (ov quroliga doir ruxsatnomalarga nisbatan);

jismoniy shaxs bo'lgan ruxsatnoma egasi vafot etganda, uning muomala layoqati cheklanganda, u muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

*Oldingi tahrirga qarang.*

ushbu Qonun 13-moddasi to'qqizinchi qismining **uchinchi — o'ninchi** va **o'n ikkinchi xatboshilarida** nazarda tutilgan, ruxsatnoma olish imkoniyatini istisno etadigan holatlar yuzaga kelganda;

*(35-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi O'RQ-640-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son)*

ruxsatnoma egasi ruxsat berishga doir talablar va shartlarni bir yil davomida muntazam ravishda (ikki va undan ortiq marotaba) yoki bir marotaba qo'pol ravishda buzganda, agar mazkur qoidabuzarliklar fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga zarar yetkazilishiga olib kelgan bo'lsa;

*Oldingi tahrirga qarang.*

ruxsatnoma egasi ruxsatnomaning amal qilishi to'xtatib turilishiga sabab bo'lgan holatlarni ichki ishlar organi yoki sud tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etmaganda;

*(35-modda birinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

ichki ishlar organining ruxsatnoma berish to'g'risidagi qarori qonunga xilof ekanligi aniqlanganda;

*(35-modda birinchi qismining to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

ruxsatnomaning amal qilish muddati o'tganda;

bajarilishi uchun ruxsatnoma berilgan bir martalik harakat bajarilganda.

Ushbu modda birinchi qismining **uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi, o‘ninchi va o‘n birinchi xatboshilarida** ko‘rsatilgan hollar yuzaga kelishi bilan ruxsatnomaning amal qilishi tugatilgan hisoblanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ruxsatnomaning amal qilishi ushbu modda birinchi qismining **ikkinchi va oltinchi xatboshilarida** ko‘rsatilgan hollarda ichki ishlar organi tomonidan, shuningdek ushbu modda birinchi qismining **yettinchi, sakkizinchi va to‘qqizinchi xatboshilarida** ko‘rsatilgan hollarda esa sud tomonidan tugatiladi.

*(35-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrda kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ruxsatnomaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi sudning qarori ruxsatnomaning egasiga va ichki ishlar organiga qonunchilikda belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

*(35-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrda kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ichki ishlar organining ruxsatnomaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qarori ruxsatnoma egasiga qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran bir ish kundan kechiktirmay yozma yoki elektron (mavjud bo‘lgan taqdirda) shaklda yetkaziladi. Ruxsatnomaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qaror ruxsatnoma egasi tomonidan olingan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida ruxsatnoma ichki ishlar organiga qaytarilishi va yo‘q qilinishi lozim.

*(35-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrda kuchga kiradi)*

Ruxsatnomaning amal qilishi uning amal qilishini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan e‘tiboran tugatiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ichki ishlar organining ruxsatnomaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Ruxsatnomaning amal qilishini tugatish sud tomonidan asossiz deb topilgan taqdirda, ichki ishlar organi ruxsatnoma egasi oldida u ko‘rgan zarar miqdorida javobgar bo‘ladi.

*(35-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrda kuchga kiradi)*

### **36-modda. Ruxsatnomani bekor qilish**

Ruxsatnoma:

egasining uni bekor qilish to‘g‘risidagi arizasi;

soxta hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganligi asosida bekor qilinadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ruxsatnoma ushbu moddaning birinchi qismi **ikkinchi xatboshisida** ko‘rsatilgan holda ichki ishlar organi tomonidan, ushbu moddaning birinchi qismi **uchinchi xatboshisida** ko‘rsatilgan holda sud tomonidan bekor qilinadi.

*(36-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrda kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ruxsatnoma egasi tomonidan sudning uni bekor qilish to‘g‘risidagi qarori olingan kundan keyin o‘n kun ichida ruxsatnoma ichki ishlar organiga qaytarilishi va yo‘q qilinishi lozim.

*(36-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Sudning ruxsatnomani bekor qilish to'g'risidagi qarori berilgan sanadan e'tiboran amal qiladi.

## **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

### **37-modda. Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini, shuningdek tuzilishi jihatidan qurolga o'xshash bo'lgan buyumlarni sertifikatlashtirish**

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilayotgan va O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari, shuningdek tuzilishi jihatidan qurolning mazkur turlariga o'xshash bo'lgan buyumlar sertifikatlashtirilishi shart.

Fuqaroviy va xizmat quroliga hamda uning o'q-dorilariga doir texnik talablar, ushbu qurol va o'q-dorilarni tamg'alash, o'rash-joylash qoidalari va ularning muvofiqligini baholash uchun sinov usullari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

### **38-modda. Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari davlat kadastr**

Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari davlat kadastr (bundan buyon matnda Qurol kadastr deb yuritiladi) O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan yuritiladi va nashr etiladi hamda u fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan rasmiy to'plamdir.

Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari to'g'risidagi ma'lumotlar sertifikatlashtirishning ijobiy natijalari asosida Qurol kadastriga kiritiladi.

Qurol kadastriga tig'li sovuq qurol va uloqtirish quroli to'g'risidagi, yagona nusxalari O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan yoki O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqiladigan fuqaroviy va xizmat o'qotar quroli haqidagi ma'lumotlar kiritilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-dekabr 810-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet el fuqarolarining qurol va uning o'q-dorilari muomalasi sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risidagi nizom.*

### **39-modda. O'zbekiston Respublikasining Davlat o'q-gilzotekasini tashkil etish**

Hodisa sodir bo'lgan joydan olingan, shuningdek soyli stvolli fuqaroviy va xizmat o'qotar qurolidan nazorat tartibida otilgan, qurol izlari tushgan o'qlar, gilza va patronlar O'zbekiston Respublikasining Davlat o'q-gilzotekasini shakllantirish uchun yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat o'q-gilzotekasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan yuritiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-yanvardagi 13-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat o'q-gilzotekasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.*

### **40-modda. Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari muomalasi ustidan davlat nazorati**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi hududida fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari muomalasi ustidan davlat nazorati ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

*(40-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ichki ishlar organlari o‘z vakolatlari doirasida:

*(40-modda ikkinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o‘q-dorilari muomalasi sohasida litsenziyalar va ruxsatnomalar berish;

litsenziyalar va ruxsatnomalar talablari hamda shartlariga rioya etilishini tekshirish;

litsenziyalar va ruxsatnomalarning talablari hamda shartlariga rioya etilishini tekshirishlar chog‘ida yuzaga keladigan masalalar bo‘yicha zarur axborotni so‘rab olish;

qurol va uning o‘q-dorilari ishlab chiqariladigan, ta‘mirlanadigan, realizatsiya qilinadigan, saqlanadigan hamda yo‘q qilinadigan joylarda ularni ko‘zdan kechirish;

tekshirishlar natijalari asosida litsenziyalar va ruxsatnomalar talablari hamda shartlarining aniq buzilishlarini ko‘rsatgan holda dalolatnomalar tuzish;

litsenziyalar va ruxsatnomalar egalari zimmasiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatlarini belgilash;

*Oldingi tahrirga qarang.*

litsenziyalar va ruxsatnomalarning amal qilishini to‘xtatib turish, qayta tiklash, litsenziyalar va ruxsatnomalarni bekor qilish yoki qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va tartibda ularni bekor qilish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

*(40-modda ikkinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqaroviy qurolni saqlash tartibiga rioya etilishini tekshirish ichki ishlar organlarining profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan bir yilda kamida bir marta amalga oshirilishi kerak.

*(40-modda O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o‘q-dorilari muomalasi ustidan davlat nazorati boshqa organlar tomonidan ham o‘z vakolatlari doirasida amalga oshirilishi mumkin.

#### **41-modda. Qurol va uning o‘q-dorilari muomalasi sohasida xalqaro hamkorlik**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qurol va uning o‘q-dorilari muomalasi sohasida, shu jumladan ularning qonunga xilof muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash, ularning oldini olish, ularga chek qo‘yish hamda ularni fosh etishda chet davlatlar bilan hamkorlik O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

*(41-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

#### **42-modda. Nizolarni hal etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qurol va uning o‘q-dorilari muomalasi sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

*(42-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **43-modda. Qurol to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik**

Qurol to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

(43-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 90<sup>1</sup>, 185, 220, 221-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 247, 248, 249, 297-moddalari.

#### **44-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta‘minlash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta‘minlasin.

(44-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **45-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish**

(45-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:  
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;  
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta‘minlasin.

#### **46-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi**

Ushbu Qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran olti oy o‘tgach kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 29-iyul,  
O‘RQ-550-son

*Oldingi tahrirga qarang.*

“Qurol to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga  
1-ILOVA

### **Xizmat quroliga egalik qilishga monelik qiladigan kasalliklar yoki jismoniy nuqsonlar**

#### **RO‘YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Kasalliklarning va jismoniy nuqsonlarning nomi</b>
<b>I. Ruhiy va asab kasalliklari</b>	
1.	Ruhiy holatning barcha buzilishlari
2.	Epilepsiya
3.	Epizodik va paroksizmal buzilishlar
4.	Karotid sinusining qo‘zg‘alishi bilan bog‘liq bo‘lgan hushdan ketish, idiopatik periferik vegetativ nevropatiya
<b>II. Narkologik kasalliklar</b>	
1.	Barcha narkologik kasalliklar, bundan tamakiga tobeklik mustasno
<b>III. Ko‘z kasalliklari</b>	
1.	Ko‘zning ko‘rish funksiyasi sezilarli darajada buzilishi bilan bog‘liq surunkali kasalliklari (ko‘rish o‘tkirligining korreksiya bilan bir ko‘zda 0,5 (50 foiz) dan pastligi, ikkinchi ko‘zda 0,2 (20 foiz) dan pastligi)

<b>IV. Quloq kasalliklari</b>	
1.	Eshitish zaifligi (garanglik 4 daraja, karlik)
<b>V. Tayanch-harakat tizimi kasalliklari</b>	
1.	Qo'l kaftining qo'shimcha bosh barmog'i
2.	Barmoqlarning bir-biriga suyaklanib birikishi
3.	Barmoqlarning bir-biriga parda yordamida birikishi
4.	Ko'plab barmoqlarning birikib ketganligi
5.	Qo'lning tug'ma ravishda mavjud emasligi
6.	Qo'l kafti saqlangan holda yelka va bilakning mavjud emasligi
7.	Elka, bilak va kaftning mavjud emasligi
8.	Qo'l kafti va barmoqlarning mavjud emasligi
9.	Bilak suyagining kaltaligi
10.	Tirsak suyagining kaltaligi
11.	Qisqichsimon kaft
12.	Qo'l kaltaligiga sabab bo'luvchi boshqa nuqsonlar
13.	Qo'l kaltaligiga sabab bo'luvchi noaniq nuqsonlar
14.	Qo'lning noaniq sababli tug'ma mavjud emasligi
15.	Qo'l va oyoqlarning sababi noaniq bo'lgan fokomeliyasi
16.	Suyak rivojlanishi nuqsonlari natijasidagi tug'ma skolioz
17.	To'liq bo'lmagan osteogenez
18.	Poliostoz fibroz displaziya
19.	Suyak siniqlarining bitmasligi (yolg'on bo'g'im)
20.	Artorodez va suyak bitishidan keyingi psevdartroz
21.	Suyak siniqlarining sekin bitishi
22.	Ushbu bandning boshqa kichik bandlarida ta'riflanmagan stressli siniqlar
23.	Ushbu bandning boshqa kichik bandlarida ta'riflanmagan patologik sinishlar
24.	Suyak butunligining boshqa buzilishlari
25.	Suyak butunligining noaniq sababli buzilishlari
26.	Fibroz displaziya (aniq bir suyakda)
27.	Suyak zichligining va tuzilishining noaniq sababli buzilishlari
28.	O'tkir gematogen osteomiyelit
29.	O'tkir osteomiyelitning boshqa turlari
30.	Surunkali, ko'p o'choqli osteomiyelit
31.	Idiopatik aseptik nekroz
32.	Medikament ta'siridagi osteonekroz
33.	Travma oqibatidagi osteonekroz
34.	Boshqa ikkilamchi osteonekroz
35.	Boshqa sababli osteonekroz
36.	Noaniq sababli osteonekroz
37.	Suyaklar gipertrofiyasi
38.	Osteoliz
39.	Poliyeomiyelit natijasidagi osteopatiyalar
40.	O'smalar natijasidagi sinishlar
41.	Elkaning o'smirlar osteoxondrozi
42.	Bilak suyaklari o'smirlar osteoxondrozi
43.	Spastik bo'yin qiyshiqligi
44.	Tug'ma bo'yin qiyshiqligi (to'sho'mrov so'rg'ichsimon muskulining tug'ma deformatsiyasi)
45.	Klippel — Feyl sindromi
46.	Bo'yindagi qovurg'a



47.	Bo‘yin umurtqalararo diski jarohati, miyelopatiya bilan
48.	Bo‘yin umurtqalararo diski jarohati, radikulopatiya bilan
49.	Folkmanning ishemik kontrakturasi
50.	Erbaning tug‘uruq vaqtidagi paralichi
<b>VI. Noinfekcion va infekcion kasalliklar</b>	
1.	Qon aylanishi yetishmovchiligi asoratiga ega yurak kasalliklari
2.	Yaqqol ifodalangan o‘pka-yurak yetishmovchiligi bilan asoratlangan surunkali o‘pka obstruktiv kasalligi
3.	Gipertoniya kasalligi III bosqichi
4.	Bronxial astmaning og‘ir kechishi
5.	Jigar tsirrozi
6.	O‘tkir nefritik sindrom
7.	Surunkali nefrotik sindrom
8.	Nefrotik sindrom
9.	O‘tkir buyrak yetishmovchiligi
10.	Surunkali buyrak yetishmovchiligi
11.	Tireotoksikoz (gipertireoz)
12.	Tuberkulyoz faol shakllarining har qanday joylashuvi

*(1-ilova O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O‘RQ-772-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

“Qurol to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga  
2-ILOVA

## Fuqaroviy qurolga egalik qilishga monelik qiladigan kasalliklar yoki jismoniy nuqsonlar

### RO‘YXATI

T/r	Kasalliklarning va jismoniy nuqsonlarning nomi
<b>I. Ruhiy va asab kasalliklari</b>	
1.	Ruhiy holatning barcha buzilishlari
2.	Epilepsiya
3.	Epizodik va paroksizmal buzilishlar
4.	Karotid sinusining qo‘zg‘alishi bilan bog‘liq bo‘lgan hushdan ketish, idiopatik periferik vegetativ nevrozi
<b>II. Narkologik kasalliklar</b>	
1.	Barcha narkologik kasalliklar, bundan tamakiga tobeklik mustasno
<b>III. Ko‘z kasalliklari</b>	
1.	Ko‘zning ko‘rish funksiyasining sezilarli darajada buzilishi bilan bog‘liq surunkali kasalliklari (ko‘rish o‘tkirligining korreksiya bilan bir ko‘zda 0,5 (50 foiz) dan pastligi, ikkinchi ko‘zda 0,2 (20 foiz) dan pastligi)
<b>IV. Quloq kasalliklari</b>	
1.	Eshitish zaifligi (garanglik 4 daraja, karlik)
<b>V. Tayanch-harakat tizimi kasalliklari</b>	
1.	Qo‘l kaftining qo‘shimcha bosh barmog‘i
2.	Barmoqlarning bir-biriga suyaklanib birikishi
3.	Barmoqlarning bir-biriga parda yordamida birikishi
4.	Ko‘plab barmoqlarning birikib ketganligi
5.	Qo‘lning tug‘ma mavjud emasligi

6.	Qo‘l kafti saqlangan holda yelka va bilakning mavjud emasligi
7.	Elka, bilak va kaftning mavjud emasligi
8.	Qo‘l kafti va barmoqlarning mavjud emasligi
9.	Bilak suyagining kaltaligi
10.	Tirsak suyagining kaltaligi
11.	Qisqichsimon kaft
12.	Qo‘l kaltaligiga sabab bo‘luvchi boshqa nuqsonlar
13.	Qo‘l kaltaligiga sabab bo‘luvchi noaniq nuqsonlar
14.	Qo‘lning noaniq sababli tug‘ma mavjud emasligi
15.	Qo‘l va oyoqlarning sababi noaniq bo‘lgan fokomeliyasi
16.	Suyak rivojlanishi nuqsonlari natijasidagi tug‘ma skolioz
17.	To‘liq bo‘lmagan osteogenez
18.	Poliostoz fibroz displaziya
19.	Suyak siniqlarining bitmasligi (yolg‘on bo‘g‘im)
20.	Artrodez va suyak bitishidan keyingi psevdartroz
21.	Suyak siniqlarining sekin bitishi
22.	Ushbu bandning boshqa kichik bandlarida ta‘riflanmagan stressli siniqlar
23.	Ushbu bandning boshqa kichik bandlarida ta‘riflanmagan patologik sinishlar
24.	Suyak butunligining boshqa buzilishlari
25.	Suyak butunligining noaniq sababli buzilishlari
26.	Fibroz displaziya (aniq bir suyakda)
27.	Suyak zichligining va tuzilishining noaniq sababli buzilishlari
28.	O‘tkir gematogen osteomiyelit
29.	O‘tkir osteomiyelitning boshqa turlari
30.	Surunkali, ko‘p o‘choqli osteomiyelit
31.	Idiopatik aseptik nekroz
32.	Medikament ta‘siridagi osteonekroz
33.	Travma oqibatidagi osteonekroz
34.	Boshqa ikkilamchi osteonekroz
35.	Boshqa sababli osteonekroz
36.	Noaniq sababli osteonekroz
37.	Suyaklar gipertrofiyasi
38.	Osteoliz
39.	Poliyeomiyelit natijasidagi osteopatiyalar
40.	O‘smalar natijasidagi sinishlar
41.	Elkaning o‘smirlar osteoxondrozi
42.	Bilak suyaklari o‘smirlar osteoxondrozi
43.	Spastik bo‘yin qiyshiqligi
44.	Tug‘ma bo‘yin qiyshiqligi (to‘sho‘mrov so‘rg‘ichsimon muskulining tug‘ma deformatsiyasi)
45.	Klippel — Feyl sindromi
46.	Bo‘yindagi qovurg‘a
47.	Bo‘yin umurtqalararo diski jarohati, miyelopatiya bilan
48.	Bo‘yin umurtqalararo diski jarohati, radikulopatiya bilan
49.	Folkmaning ishemik kontrakturasi
50.	Erbaning tug‘uruq vaqtidagi paralichi
<b>VI. Noinfeksion va infeksion kasalliklar</b>	
1.	Qon aylanishi yetishmovchiligi asoratiga ega yurak kasalliklari
2.	Yaqqol ifodalangan o‘pka-yurak yetishmovchiligi bilan asoratlangan surunkali o‘pka obstruktiv kasalligi

3.	Gipertoniya kasalligi III bosqichi
4.	Bronxial astmaning og'ir kechishi
5.	Jigar tsirrozi
6.	O'tkir nefritik sindrom
7.	Surunkali nefrotik sindrom
8.	Nefrotik sindrom
9.	O'tkir buyrak yetishmovchiligi
10.	Surunkali buyrak yetishmovchiligi
11.	Tireotoksikoz (gipertireoz)
12.	Tuberkulyoz faol shakllarining har qanday joylashuvi

*(2-ilova O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi O'RQ-772-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son — 2022-yil 2-sentabrdan kuchga kiradi)*

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2019-y., 03/19/550/3484-son; 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son; 06.11.2020-y., 03/20/645/1469-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son, 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son; 01.06.2022-y., 03/22/772/0460-son)*